



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	

KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARIDA ONGLI INTIZOMNI TARBIYALASHNING SAMARALI USULLARI

Ziyayev Adxamjon

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni shakllantirishning pedagogik, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini ilmiy asosda yoritilgan. Intizomning ijtimoiy ahamiyati hamda o'quv jarayonida tartib-qoidalarga ongli rioya etishning o'quvchi shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda amaliyotda samaradorligi isbotlangan usullar – rag'batlantirish, o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, sinf muhitini boshqarish, refleksiya va hamkorlik pedagogikasidan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ongli intizom, kichik maktab yoshi, tarbiya, rag'batlantirish, o'zini o'zi boshqarish, hamkorlik pedagogikasi.

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological, and educational aspects of developing conscious discipline in primary school students. The social significance of discipline and the impact of conscious adherence to classroom rules on students' personal development are analytically explored. The study highlights evidence-based and effective educational practices, including positive reinforcement, the development of self-regulation skills, classroom environment management, reflective practices, and cooperative learning approaches.

Key words: conscious discipline, primary school students, education, positive reinforcement, self-regulation, cooperative learning.

Аннотация: В статье научно рассматриваются педагогические, психологические и воспитательные аспекты формирования сознательной дисциплины у младших школьников. Проанализировано социальное значение дисциплины, а также влияние осознанного соблюдения правил учебного процесса на личностное развитие обучающихся. В работе представлены эффективные методы воспитательной практики, доказавшие свою результативность: поощрение, развитие навыков саморегуляции, управление классной средой, рефлексия и технологии педагогического сотрудничества.

Ключевые слова: сознательная дисциплина, младший школьный возраст, воспитание, поощрение, саморегуляция, педагогика сотрудничества.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va axborot oqimining kuchayishi sharoitida maktab o'quvchisidan nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, o'zini boshqarish hamda ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlar ham talab etiladi. Shu jihatdan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshi – bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda unda xulq-atvor me'yorlari, axloqiy qadriyatlar, jamoada o'zini tutish madaniyati hamda o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalari tarkib topadi. Agar mazkur bosqichda intizom majburlash yoki qo'rqov asosida emas, balki ongli ravishda, ichki ehtiyoj va motivatsiya negizida shakllantirilsa, u barqaror shaxsiy sifatga aylanadi.

Ongli intizom – bu o'quvchining tashqi nazoratsiz ham qoidalarga amal qilishi, o'z xatti-harakatlari oqibatini anglab yetishi hamda ijtimoiy talablarni ichki e'tiqod sifatida qabul qilishi demakdir. Bunday sifatni shakllantirish pedagogdan yuqori kasbiy mahorat, chuqur psixologik bilim va tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil etishni talab etadi.

Davlatimiz ta'lim siyosatida ham tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim sifatini oshirish, mas'uliyatli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari ushbu masalaning strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.



Kichik maktab yoshi o'quvchilari shaxs rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda ularning aqliy, emotsional va ijtimoiy sifatlari jadal shakllanadi. Shu bois intizom va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish, ijtimoiy tajribani egallash jarayonida o'quvchi mustaqil ravishda to'g'ri qaror qabul qilish, o'zini boshqarish hamda o'z xatti-harakatlari oqibatini anglashga o'rganishi zarur.

Odatda intizom tushunchasi "tartib" yoki "qoidabozlik" bilan bog'lanadi. Aslida esa ongli intizom – o'quvchining ichki ehtiyoji, qoidalarga ongli ravishda amal qilishga bo'lgan ichki motivatsiyasidir. Shu sababli zamonaviy pedagogika fani intizomni majburlash orqali emas, balki ongli, ijobiy va barqaror xarakter sifatida tarbiyalashni ilgari suradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur muammo shaxs tarbiyasi, ijtimoiylashuv jarayoni hamda ta'lim samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilgan.

Avvalo, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", degan fikr jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tiladi [1, 15-b.]. Ushbu yondashuv ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, o'quvchilarda intizom va mas'uliyatni erta yoshdan shakllantirish zaruratini asoslaydi.

A.N. Ziyayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, intizomni tabiiy ravishda mustahkamlashi qayd etilgan [2, 145-b.]. Muallifning fikricha, o'quv jarayonida o'quvchini faol subyektga aylantirish uning ichki mas'uliyat hissini kuchaytiradi va ongli intizomni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A. Ziyayevning estetik tarbiya masalalariga bag'ishlangan ishida mutafakkirlar qarashlari asosida o'quvchilarda axloqiy me'yorlarni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan [3, 67-b.]. Muallif intizomni axloqiy ong bilan bog'lab, uning ichki e'tiqod darajasiga ko'tarilishi zarurligini ta'kidlaydi.

A.N. Ziyayevning sinf rahbarining faoliyat yo'nalishlariga bag'ishlangan tadqiqotida o'quvchilarda mustaqil hayot uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishda intizomiy tarbiya asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatiladi [4, 954-b.]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tizimli tarbiyaviy ishlar o'quvchilarda o'zini boshqarish va javobgarlik sifatlarni rivojlantiradi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid ilmiy ishda ham intizom masalasi shaxsning o'zini nazorat qilishi va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat yuritishi bilan bog'liq holda izohlanadi [5, 852-b.]. Muallif intizomni kundalik faoliyatni rejalashtirish va unga rioya qilish bilan uzviy aloqada talqin etadi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlar asosida fuqaroni tarbiyalash masalasiga bag'ishlangan tadqiqotda intizom ijtimoiy ong va fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida yoritilgan [6, 79-b.]. Muallifning fikricha, milliy qadriyatlar asosida shakllangan intizom barqaror va ongli xulq-atvorni ta'minlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ongli intizomni shakllantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg'unligida amalga oshiriladi. Ilmiy manbalarda rag'batlantirish, interaktiv metodlar, hamkorlik pedagogikasi, shaxsiy namuna va refleksiya kabi usullar eng samarali vositalar sifatida e'tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash jarayonini o'rganish maqsadida bir qator empirik va nazariy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa va diagnostik topshiriqlar orqali to'plandi. Kuzatuv usuli yordamida o'quvchilarning dars jarayonidagi xulq-atvori, qoidalarga rioya etish darajasi va o'zini boshqarish ko'nikmalari tahlil qilindi. Suhbat va anketa metodlari orqali o'quvchilar hamda o'quvchilarning ongli intizomga munosabati, rag'batlantirish va tarbiyaviy usullarning samaradorligi haqida ma'lumotlar olindi.

Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy va tavsifiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, mavjud holat bilan taklif etilgan yondashuvlar natijalari solishtirildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, ongli intizomni shakllantirishda samarali pedagogik usullar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ongli intizom – bu o'quvchining o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishi, qoida va talablarni ongli ravishda qabul qilishi hamda ularni bajarish mohiyatini tushungan holda amalga oshirishi demakdir.

Kichik maktab yoshida bolalarning:

- irodaviy sifatlari endigina shakllanadi;

- emotsional boshqaruv qobiliyati nisbatan kuchsiz bo'ladi;
- tashqi motivatsiya (maqtov, rag'bat) kuchli rol o'ynaydi;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari sust bo'ladi.

Shu bois ushbu davr ongli intizomni tarbiyalash uchun eng qulay davr sanaladi. To'g'ri tanlangan usullar o'quvchilarda mas'uliyat, o'z-o'zini nazorat qilish hamda ijobiy ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga zamin yaratadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish jarayoni psixologik qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Chunki bu davrda bolaning xulq-atvori, irodaviy sifatleri va emotsional barqarorligi to'liq shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyaviy ta'sir usullari ularning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda olib borilishi lozim.

Kichik maktab yoshida taqlid qilish tabiiy va kuchli mexanizm hisoblanadi. Bolalar kattalarning, ayniqsa o'qituvchi va ota-onaning xatti-harakati, nutqi hamda munosabat uslubini kuzatadi va ongli yoki ongsiz ravishda takrorlaydi. O'qituvchining intizomli, madaniyatli va hurmatga asoslangan muomalasi o'quvchilar ongida namuna sifatida mustahkamlanadi. Shaxsiy namuna orqali berilgan tarbiyaviy ta'sir og'zaki talabdan ko'ra samaraliroq natija beradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hissiy jihatdan sezgir bo'lgani sababli emotsional muhit intizom shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Qattiq tanbeh, keskin tanqid yoki jazoga asoslangan yondashuv ko'pincha qo'rquv va ichki qarshilikni yuzaga keltiradi. Ijobiy emotsional muloqot, qo'llab-quvvatlash va samimiy munosabat esa bolada ishonch hamda ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Mehrga asoslangan talabchanlik qoidalarni ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Ongli intizom faoliyat jarayonida yanada barqaror shakllanadi. O'yin, jamoaviy ishlar va kichik loyihalarda qatnashish orqali o'quvchi qoidalarga amal qilish umumiy natijaga erishishning zarur sharti ekanini anglaydi. Qoidalar shunchaki cheklov emas, balki muvaffaqiyat omili sifatida idrok etila boshlaydi. Shu tariqa intizom tashqi nazorat mahsuli emas, balki ichki ehtiyojga aylanadi.

Rag'batlantirish kichik maktab yoshida ayniqsa samarali vosita hisoblanadi. Maqtov, e'tirof va ijobiy baholash o'quvchining to'g'ri xulq-atvorini mustahkamlaydi hamda uni takrorlash istagini kuchaytiradi. Tanqiddan ko'ra ijobiy mustahkamlash bolada o'ziga ishonchni oshiradi va intizomni ichki qadriyat sifatida qabul qilishga xizmat qiladi.

Shu tariqa psixologik qonuniyatlarga asoslangan, ijobiy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv kichik yoshdagi o'quvchilarda ongli intizomni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Amaliyotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirishga xizmat qiluvchi bir qator samarali metodlar mavjud bo'lib, ular pedagogik tajribada o'z natijasini ko'rsatgan. Ushbu usullar o'quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytirish, o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijobiy sinf muhitini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Rag'batlantirish va ijobiy mustahkamlash usuli o'quvchining to'g'ri xulq-atvorini tan olish va uni baholashga asoslanadi. Maqtov, kichik sovg'alar, belgilar, yulduzchalar tizimi yoki "eng namunali o'quvchi" kabi e'tirof shakllari bolada ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va to'g'ri xulqni takrorlash istagini kuchaytiradi. Natijada o'quvchi intizomni tashqi talab emas, balki shaxsiy muvaffaqiyat omili sifatida qabul qila boshlaydi. Ijobiy mustahkamlash kichik yoshda ayniqsa samarali bo'lib, barqaror xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qoidalarni birgalikda ishlab chiqish ham ongli intizomni mustahkamlovchi muhim metodlardan biridir. Agar o'qituvchi qoidalarni tayyor ko'rinishda taqdim etish o'rniga ularni bolalar bilan muhokama asosida shakllantirsa, o'quvchilarda egalik hissi va jamoaviy mas'uliyat paydo bo'ladi. Bunday jarayonda o'quvchilar qoidalarni o'zlari qabul qilgan me'yor sifatida idrok etadi va ularga rioya qilishga ongli ravishda harakat qiladi. Ushbu yondashuv demokratik tarbiya tamoyillariga mos keladi va ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish ongli intizomning asosiy mezonini hisoblanadi. Vaqtni to'g'ri taqsimlash, navbat kutish, his-tuyg'ularni nazorat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va maqsad qo'yish kabi ko'nikmalar o'quvchining ichki nazorat mexanizmini rivojlantiradi. Reflektiv savollar orqali o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qilishga va xatti-harakatlariga baho berishga o'rganadi. Bu jarayon ongli nazoratni mustahkamlab, intizomning ichki ehtiyojga aylanishiga yordam beradi.

Sinf muhitini to'g'ri tashkil etish ham muhim omildir. Ijobiy psixologik muhit yaratilgan sinfda nizolar kamayadi, o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi va o'zaro hurmat kuchayadi. Kundalik tartibning barqarorligi, aniq talablar, shaxsga emas, xulqqa baho berish hamda yumshoq, ammo qat'iy talabchanlik intizomni barqarorlashtiradi. Bunday muhitda o'quvchi o'zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi, bu esa ongli xulq-atvorni qo'llab-quvvatlaydi.

Refleksiya jarayoni intizomning ongli shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Dars oxirida o'tkaziladigan qisqa tahlil o'quvchiga o'z xatti-harakatlarini baholash, muvaffaqiyat va kamchiliklarini anglash imkonini



beradi. O'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgangan bola asta-sekin ichki nazorat mexanizmini rivojlantiradi va intizomiy xatti-harakatlarni mustaqil boshqarishga intiladi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ham ongli intizomni tabiiy ravishda mustahkamlaydi. Jamoaviy topshiriqlar, juftlikda ishlash va kichik guruh loyihalari o'quvchilarda mas'uliyat, o'zaro yordam, tizimli fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Bunday faoliyat jarayonida har bir o'quvchi umumiy natijaga javobgar ekanini his qiladi, bu esa intizomni ichki zarurat sifatida qabul qilishiga olib keladi ^[3].

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda intizom buzilishining sabablari ko'pincha psixologik ehtiyojlarning qondirilmaslighi, qoidalarning tushunarsizligi, haddan tashqari qattiqqo'llik, faol harakat va o'yinga bo'lgan yuqori ehtiyoj hamda o'qituvchi bilan emotsional aloqa yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli yuqorida ko'rsatilgan metodlar mazkur muammolarga mos pedagogik yechim sifatida samarali qo'llanadi.

Nazorat sinflarida mazkur yondashuvlar tatbiq etilgach, dars jarayonidagi tartibsizliklar sezilarli darajada kamaygani, o'quvchilarning o'qishga qiziqishi ortgani, o'z fikrini madaniyatli ifodalash ko'nikmalari shakllangani hamda mas'uliyatli munosabat kuchaygani kuzatilgan. Bu esa usullarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Kichik maktab yoshi ongli intizomni shakllantirish uchun eng qulay va sezgir davr hisoblanadi. Pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish orqali o'qituvchi mas'uliyatli, o'zini boshqara oladigan, ijtimoiy faol va ijobiy xulq-atvorga ega o'quvchi shaxsini tarbiyalashi mumkin. Tadqiqot natijalari rag'batlantirish, refleksiya, o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, sinf muhitini boshqarish hamda hamkorlikka asoslangan yondashuvlar ongli intizomni shakllantirishda eng samarali vositalar ekanini ko'rsatadi ^[3]. Ushbu metodlarning kompleks qo'llanilishi ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi hamda o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim va ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu davr shaxs rivojlanishining eng sezgir bosqichi bo'lib, aynan shu paytda xulq-atvor me'yorlari, irodaviy sifatlar, o'zini boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Shuning uchun intizomni majburlash yoki jazoga asoslangan usullar orqali emas, balki ongli, ijobiy va ichki motivatsiyaga tayangan holda tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, rag'batlantirish va ijobiy mustahkamlash, qoidalarni birgalikda ishlab chiqish, o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijobiy sinf muhitini yaratish, refleksiya hamda hamkorlik pedagogikasi ongli intizomni shakllantirishda samarali natija beradi. Mazkur yondashuvlar o'quvchida ichki nazorat mexanizmini rivojlantirib, intizomni shaxsiy qadriyat darajasiga ko'taradi. Shuningdek, psixologik qonuniyatlarga asoslangan, yosh xususiyatlarini hisobga olgan va emotsional qo'llab-quvvatlashga tayangan pedagogik jarayon barqaror natijalarni ta'minlaydi. Intizomni ongli ravishda qabul qilgan o'quvchi nafaqat dars jarayonida tartibli bo'ladi, balki kundalik hayotida ham mas'uliyatli, o'zini boshqara oladigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Ş. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" nashriyoti / "Xalq so'zi" gazetasi, 2017.
2. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Правила использования интерактивных методов обучения." Conferencea (2023): 143-148.
3. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся." E Conference Zone. 2023.
4. Ziyayev, A. N. "The Main Areas Of Activity Of The Class Leader In The Education Of The Necessary Skills For An Independent Life In Students." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 953-956.
5. Ziyayev, A. N. "Some Issues Of The Formation Of Skills Of A Healthy Lifestyle In Students In The Process Of Labor Education." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 851-853.
6. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Роль национальных ценностей в воспитании гражданина." Ученый XXI века (2017): 78

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.